

681  
A-49




---

M.M.Aliyev, E.T.Toxirov

## TIZIMLI DASTURIY TA'MINOT

Uslubiy qo'llanma



---

Toshkent-2012


«O'zbekiston temir yo'llari» DATK

Toshkent temir yo'l muhandislari instituti

M.M.Aliyev, E.T.Toxirov

**TIZIMLI DASTURIY TA'MINOT**

5521900 – “Informatika va axborot texnologiyalari”  
ta'lim yo'nalishi 2 - bosqich bakalavriat talabalari uchun  
uslubiy qo'llanma



Toshkent – 2012

## **UDK 651.31**

Tizimli dasturiy ta'minot. Uslubiy qo'llanma. **M.M.Aliyev, E.T.Toxirov.** ToshTYMI, T.: 2012, 44 bet.

Ushbu uslubiy qo'llanma kompyuter dasturiy ta'minoti va tizimli dasturiy ta'minoti: operatsion tizimlar, fayl menejerlari, utilita dasturlari, kompyuterning xavfsizligi asoslari kabi bilimlarni egallashga mo'ljallangan bo'lib, unda talabalarga nazariz jihatdan asosiy yo'nalishlar berilgan.

Uslubiy qo'llanma 5521900 – “Informatika va axborot texnologiyalari” ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi 2-bosqich bakalavriat talabalariga bilimlarini mustahkamlashlari uchun ishlab chiqilgan.

Institut O'quv-uslubiy komissiyasi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

**Taqrizchilar:** U.F. Karimov – t.f.n., dots. (ToshDMI);  
R.I. Ibragimov – t.f.n., dots.

## Kirish

Istalgan shaxsiy kompyuter, hattoki so'ngi rusumdagi zamonaviy kompyuter bo'lsada, u dasturiy taminotsiz shunchaki uskunadan boshqa narsa emas. Bunday holatda u eng elementar masalani ham hal eta olmaydi. Buning uchun dasturiy ta'minot muhim ahamiyatga ega. (DT yoki software).


Dasturiy ta'miton – dasturlar to'plami bo'lib, u kompyuter muhitida tizimga bo'g'lanib, masalalarni va muammolarni hal etrish kabi vazifalarni bajaradi.

Hisoblash tizimidagi dasturlarni ishlatishda, tizim osti dasturlari ishlatiladi(OT).

DTni loyihalashda va ishlab chiqishda barcha dasturiy ta'minot sohalari ishtirok etadi:

- texnologik loyihalashtirilgan dasturlarni loyihalash (masalan, boshlang'ich loyihalash, ob'ektga mo'ljallangan loyihalash va h.,k);
- dasturlarni testlashtirish usullari;
- dasturlar to'g'riligini isbotlovchi usullar;
- dasturlar ishlarining sifati analizi;
- dasturiy muhit ishlatilishini va ishlab chiqilishini, dasturiy ta'minot loyihalash jarayonini yengillashtirish va hokozolar.

Zamonaviy kompyuterlar o'z tarkiblariga millionlab dasturlarni qabul qila oladi. Ular ko'ngil ochar o'yinlardan tortib to murakkab darajadagi ilmiy ishlargacha bo'lishi mumkin (1-rasm):



1-rasm. Dasturiy ta'minotning umumiy ko'rinishi

**1.Tizimli dasturlar**, turli hil yordamchi funksiyalarni bajaradi, masalan:

- kompyuter resurslarini boshqarishda;

- foydalanilayotgan axborotlardan nusxa yaratishda;
- kompyuter qurilmalarining ish usullarini tekshirish;
- kompyuter haqida axborot berish va h.,k.

**2. Uskunaviy dasturiy ta'minotlar,** kompyuter uchun yangi dasturlarni yaratishda yengillik yaratib beradi.

**3. Amaliy dasturlar,** Ba'zi foydalanuvchilar uchun o'z ishlarini bevosita bajarishlarini (yaratishlarini) ta'minlaydi.

## **1. Dasturiy ta'minotning tuzilishi**

Dasturiy ta'minotning klassifikatsiyalarini ishlab chiqishda hisoblash texnikasi uchun yaratilgan barcha dasturiy ta'minotlarda vaqt o'tishi bilan eskirish yuz berishini ta'kidlash kerak.

Avvalgi dasturiy ta'minotlar – operatsion tizim, translyatorlar, amaliy dasturlar paketlari hozirgi kunga kelib ma'lum miqdorda o'zgardi.

DT avlodlari, operatsion tizim yangilanib borilmoqda, hatto mayda dasturlarning ham bir qancha turlari yaratildi. Ular ko'payib borishi bilan dasturning imkoniyatlari, hajmi, qulayliklari oshirilib borildi.

Dasturlarga bo'lgan talablar tez va jadal oshib bormoqda. Kecha o'rnatilgan dastur ertasiga bir oz qulaylik bilan yangi ko'rinish olmoqda. Hattoki operatsion tizimlar ham yildan-yilga o'z ichiga chuqurroq manoga ega bo'lgan funksiyalarni olgan holda ishlab chiqarilmoqda. Bu borada texnika inson aql-zakovati va fikrlash darajasiga yaqinlashib bormoqda.

Hozirgi kunda “aynan manashu yaratilgan dastur bizga mangu xizmat qiladi” deb aytishimiz noo'rin hisoblanadi. Chunki kelajak bunday noananaviy so'zni qabul qila olmaydi.

Bugungi kunda shuni aytishimiz mumkin-ki, dasturiy ta'minotlar bir oz murakkablashdi:

- operatsion tizimlar va qobiqlar;
- dasturiy tizimlar (translyatorlar, dastur osti kutubxonalari, otladchiklar va h.,k.);
- uskunaviy tizimlar;
- dastur paketlarining integratsiyalashganligi;
- dinamik elektron jadvallar;
- mashinaviy grafik tizimlari;
- ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (mbbt);
- amaliy dasturiy ta'minot.

Dasturiy ta'minotning tuzilishi 2-rasmda ko'rsatib o'tilgan. Bu klassifikatsiyalarni tugab borayotgan manbalar deb atashimiz mutlaqo

noo'rin bo'ladi, lekin u kamroq yoki ko'proq yo'nalishlarni qamrab oldi va dasturiy ta'minot rivojlanishini ko'rsatib berdi.

**Tizimli dasturiy ta'minot** – bu dasturlar to'plami bo'lib (mikroprotsessor, bir-biri bilan aloqada bo'lgan va periferiyali qurilmalar), ishga layoqatli va funksiyalashtirishni ta'minlovchi, butun tizimga tegishli bo'lgan hisoblash tizimining barcha komponentlarini boshqaradi.

Ularning ko'pchiligi bevosita nazoratni ta'minlashi va hisoblash tizimini turli xil apparat qurilmalarini bir-biri bilan butun qilib bog'lab beradi.

Tizimli dasturiy ta'minot amaliy dasturiy ta'minot bilan taqqoslanadi, chunki uning asosiy tomoni foydalanuvchi muammolarini to'g'ridan - to'g'ri hal etadi.

TDT ikkita komponentni o'zida mujassam etgan:

- a) operatsion tizimlar;
- b) tizimli dasturlar.

**OT** – bu dasturlarning kompleks muhiti bo'lib, barcha tizimlarning ishlash boshqaruvi funksiyalarini bajaradi, dastlabki yuklanishni ta'minlaydi, tizimni tiklash va konfiguratsiyalash, shu bilan birga foydalanuvchi bilan yonma-yon harakatlanuvchi interfeysni namoyish etadi.

**TD** – dasturiy modellar kompleksi bo'lib, apparat tizimlari muhitini va interfeys orasida birgalikdagi aloqani ta'minlaydi.

Tizimli dasturlar:

1. Mashinaga-mo'ljallangan translyatorlar (assemblerlar);
2. Dasturga-mo'ljallangan translyatorlar (kompilyatorlar, interpretatorlar);
3. Ko'maklashuvchi (otladchiklar, utilitalar, makroprotsessor).

### **1.1. Tizimli dasturiy ta'minot**

DT tizimlari - markaziy protsessor, xotiralar kirish - chiqishida kompyuter resurslarini boshqarish uchun xizmat qiladi.

Bu dasturlar foydalanuvchilar uchun umumiy tarzda ishlab chiqilgan. Tizimli dasturlar amaliy dasturlarni samarali bajarilishi uchun xizmat qiladi.

**Bazali DT** kompyuterga o'rnatilgan barcha dasturlarni boshqarishni ta'minlovchi dasturlardir.

Operatsion tizim tarkibida o'n minglab tizimli dasturlar muhiti qamrab olgan bo'lib, ular kompyuter resurslarini boshqarish bilan foydalanish samaradorligini oshiradi, foydalanuvchi bilan muloqot yaratadi, boshqa dasturlar ishga tushishini ta'minlaydi.

**Zamonaviy operatsion tizim** foydalanuvchi va boshqa dasturlar orasida qulay muloqotni ta'minlaydi (interfeys). Dastlabki operatsion tizim – DOS (Disk Operation System) 1981 yili Microsoft firmasi tomonidan chiqarilgan. 16 razryadga ega bo'lgan operatsion tizim foydalanuvchi «buyruqlar satri» bilan muloqot qilgan va hech qanday grafik interfeysga ega bo'lmagan. Hozirda ushbu operatsion tizim kompyuterlarga o'rnatilmaydi. Hattoki IBM firmasi tomonidan chiqarilayotgan PC-DOS 2000 modifikatsiyalangan rusumlari ham.

80-yillar ohirida yangilik olamida dastlabki Windows 3.x grafik muhitga ega bo'lgan operatsion tizimlar chiqa boshladi. Windows 95 (yoki boshqacha nomlanishi Chicago) barcha kompyuter industriyasida yangi bosqichni vujudga keltirdi.

Bugungi kunda kompyuterlarga asosan Microsoft firmasining operatsion tizimlari o'rnatilmoqda. Ular Windows 98, Memphis, Windows 2000, Windows Millennium Edition, Windows NT, Windows XP, Windows Vista, Windows 7. Ba'zi foydalanuvchilar boshqa firma tomonidan ishlab chiqilgan alternative sanalgan Linux, Unix, OS/2 kabi operatsion tizimlarni ishlatadi.

**Operatsion qobiq** hozirgi kompyuterlarga Norton Commander, Volkov Commander, PowerDesk, DOS Navigator, Disco Commander, Far, Windows Commander, Total Commander va boshqa qobiqlar o'rnatilmoqda. Ular nafaqat qulaylik yaratib berishadi, balki kompyuter bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilishga moslashgan bo'lib, yangi imkoniyatlarni dasturlar ishlashi uchun grafik interfeys, multidasturlash va dasturlar orasida axborot almashish uchun muhitni kengaytirib beradi.

**Tarmoq operatsion tizimlari** – lokal tarmoqlarda kompyuter ishlarini boshqarishda asosiy vazifani bajarishadi. Ular local tarmoqqa mansub bo'lgan boshqa kompyuterlarni dispatcher boshqaruvi uchun xizmat qiladi.

Tarmoq OTlari serverdan ruxsat olgan administratorlarning tarmog'ini yoki foydalanuvchini tartibga solib turadi. Bunday OTlarga Microsoft Windows NT, Novell Net Ware, LAN WorkPlace Windows Server 2003, Windows Server 2008 va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Tizim dasturlari amaliy dasturlar bilan birga bajariladi va kompyuterning kiritish-chiqarish, hotiralar, markaziy protsessor resurslarini boshqarish uchun xizmat qiladi.

Bu dasturlar kompyuterning barcha foydalanuvchilari uchun birdek xizmat ko'rsatadi. Tizimli dasturiy ta'minot amaliy dasturlarning samarali va muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydi.

Muhim tizimli dasturlar sinfiga yordamchi dasturlar – utilitalar qo'shiladi (lot. Utilites – foyda, naf). Utilitalar OTning komponentlarini

kengaytiradi va to'ldiradi yoki kompyuterga va boshqa dasturlarga xizmat ko'rsatishda muhim masalalarni hal etadi.

Ba'zi utilitalarning ko'rinishlari:

- Tekshirish dasturlari, teslovchi va diagnostika – foydalanish jarayonida nosozliklarni bartaraf etish uchun va kompyuter qurilmalarining funktsionalligini, to'g'riligini tekshirish uchun xizmat qiladi.
- Drayver dasturlari – kiritish-chiqarish qurilmalarini tezkor xotira va h.k.larni boshqarishda operatsion tizimning imkoniyatlarini kengaytiradi. Har qanday ulangan qurilma uchun drayver dasturlari mavjud.
- Ixchamlovchi dasturlar (arxivatorlar) – diskka ma'lumotlarni yozishda, saqlashda bir-qancha yaxlitlikka erishiladi va qisqartirilgan holati vujudga keladi.
- Antivirus dasturlari – zararli kompyuter viruslarini oldindan bartaraf etish va ular ustida ish olib borish, tizimni nazorat qilish kabi vazifalarni bajaradi.
- Optimallashtiruvchi va disklararo o'zaro munosabatlarda sifatli interfeysni nazorat qiluvchi dasturlar.
- Axborotlarni qayta tiklovchi, formatlovchi, himoyalovchi dasturlar.
- Kommunikatsiya (aloqa) dasturlari, kompyuterlar o'rtasida ma'lumotlar almashuvini ta'minlaydi.
- Hotirani boshqaruvchi dasturlar, tezkor xotiraning yengil tarzda epcchillik bilan foydalanilishini ta'minlaydi.
- Disk yurituvchilar (CD-ROM; CD-R; CD-RW; DVD-ROM; CD-RW+DVD; DVD-R; DVD-RW) va boshqa ko'plab dasturlar uchun.


Utilitalarning bir qismi operatsion tizim tarkibiga kiradi, boshqa bir qismi esa funksional mustaqil ravishda ajralib chiqadi. Birlashgan yoki avtonom holatda bo'ladi. Ularga Chukit, Norton Utilities, Sisoft Sandra, Nuts&Bolts, TuneUp Utilities dasturlari kiradi.

Utilitlar – yordamchi dasturlar. Unga nusxa olish uchun ishlatiladigan antivirus, arxivator, himoya va shunga o'xshash yordamchi funksiyalarni bajaruvchi programmalar kiradi.

Utilitlar – ma'lumotlarni qayta ishlashda qo'shimcha operatsiyalarni bajarishga yoki kompyuterga xizmat ko'rsatishga tashxis, apparat va dasturiy vositalarni testlash, diskdan foydalanishni optimallashtirishga mo'ljallangan dasturlardir. Ba'zan utilitlar majmualarga birlashib ketadi. Utilit dasturlarga quyidagilar kiradi:

- kommunikatsion dasturlar;
- kompyuterni diagnostikasi uchun dasturlar;
- qattiq disk, kesh va boshqa dasturlar uchun.





2-rasm. Kompyuterning dasturiy ta'minoti

### **Tizimli dasturiy ta'minot quyidagilarni bajarishga qaratilgan:**

- kompyuterning va kompyuterlar tarmog'ining ishonchli va samarali ishlashini ta'minlash;
- kompyuter va kompyuterlar tarmog'i apparat qismining ishini tashkil qilish va profilaktika ishlarini bajarish.

### **Utilita turlari:**

- qattiq disk utilitalari;
- qattiq diskni defragmentatsiya qiluvchi dasturlar;
- diskni tekshirish – har-xil fayl yo'llarida va disk hududlarida zararlangan yoki noto'g'ri yozilgan va undagi bo'sh joylarni hosil qilish maqsadida so'nggi marotaba samarali tarzda fayllarni o'chirib tashlash;
- diskni tozalash – vaqtinchalik fayllarni o'chirish, keraksiz fayllar, «savatchani» tozalash;
- diskni belgilash – mantiqiy disklarni disklarga ajratish bo'lib, fayl tizimlarini turli hil holatlarga egaligida va OTni bir nechta har xil disklarda qabul qilish;
- rezervli nusxalash – butun diskning rezervli va alohida fayllarning nusxasini yaratish, hosil bo'lgan fayllarni qayta tiklash;
- diskni ixchamlash – qattiq disklarda fayllarni qabul qishish hajmini kattalashtirish uchun axborotlarni diskda ixchamlash;
- reestrlar bilan ishlovchi utilitalar;
- qurilmalarda monitoring o'tkazuvchi utilitalari;
- qurilmalarni tekshiruvchi.

Shuni yodda saqlash kerak-ki, utilitalarning bir qismi OTning tarkibiga kiradi, boshqa qismi esa avtonom vazifalarni bajaradi. TDTning katta qismi OT tarkibiga kiradi. DTning umumiy qismi esa kompyuterning tarkibiga kiradi OTning dasturlar qismi va nazoratli testlovchi dasturlar DXQ yoki DDXQ (dasturlangan doimiy xotira qurilmasi)da yozilgan bo'lib, tizimli plataga o'rnatilgan. DTning umumiy qismi avtonom dasturlarni tashkil etadi va alohida o'ringa ega.

## **1.2. Uskunaviy dasturiy ta'minot**

Tizimli va dasturiy ta'minotni kompyuterda ishlab chiqish uchun uskunaviy muhit yordami bilan yuzaga keladi:

- yuqori darajali translyatorlar tilli;
- tahrirlash muhiti, yuklovchi va komponovka dasturlari;
- assemblerlar va makroassemblerlar (mashinaga mo'ljallangan tillar)

- otladchik mashina dasturlari;
- dasturlash tizimlari;

**Translyatorlar** mashina tili dasturlarida, dasturlarni qaytadan o'zgartirish uchun oldindan belgilangan dasturlash tillarida yozilgan. Dasturlar, chiquvchi modullar deb nomlanuvchi dasturlash tillarida tayyorlanadi. Sifat jihatidan kiruvchi ma'lumotlarni translyatorlar chiquvchi modullarni o'zgartiradi va ob'ektlar moduli ishini o'z natijasi bilan takomillashtiradi, muharrir aloqalari uchun kiruvchi ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ob'ektlar moduli mashina tilidagi dasturlar matnini va qo'shimcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Boshqa mustaqil modullarni uning yuklovchi joyidagi modul sozlovini ta'minlashda va bu modul bilan boshqa translyatsiyalangan yagona dasturlar modulini birlashtirtadi.

Dasturlar yagona yoki bir nechta chiquvchi modullarga ega bo'ladi. Yani bir yoki bir nechta dasturlash tillarida yozilgan bo'ladi.

Translyatorlar ikkita sinfga bo'linadi: komilyatorlar va interpretatorlar. Kompilyatorlar barcha chiquvchi modulni mashina tiliga o'tkazadi. Interpretator ketma-ket mashina tiliga o'tkazadi va chiquvchi operatorlarni bajaradi.

Interpretatorning kamchiligi shundaki, interpretatsiyalanayotgan dasturlar ishlash tezligi pastligida.

Interpretatorning kompilyatordan ustunligi – foydalanuvchi dasturi bir marotaba matn ko'rinishida tasvirlanishga ega bo'ladi. Ya'ni bajarilayotgan fayl ko'rinishida va matn ko'rinishida.

**Interpretator** – bu maxsus tuzilgan dastur bo'lib, dasturlash tilidagi matnni buyruqma-buyruq mashina tiliga tarjima qiladi, lekin dastur bajarilish vaqtini uzaytiradi. Interpretatorlar odatda kompyuter xotirasida doimiy saqlanadi.

Har qanday dasturlash tili kompilyatsiyalanuvchi hamda interpreta-siyalanuvchi bo'lishi mumkin. Paskal, Si, Fortran, Kobol tillari asosan kompilyatsiyalanuvchi, Logo, Fort, Beysik tillari esa ko'proq interpreta-siyalanuvchi hisoblanadi.

Kompilyatsiyalash interpretatsiyalashga nisbatan tayyor dasturlarni bajarish tezligi yuqoriligi bilan farq qiladi.

Interpretatsiyalanuvchi til esa, shaxsiy kompyuterlari bilan muloqot tartibida ishlash uchun qulay imkoniyatga ega bo'lib, dasturning bajarilishida hosil bo'ladigan xatoliklarni shu vaqtning o'zida to'g'rilash imkoniyati mavjud bo'ladi. Buning uchun matnni tahrirlash dasturiga qaytish va uni yana kompilyatsiyalash shart bo'lmaydi.

Universal maqsadlarga mo'ljallangan kompyuterlar uchun ko'proq kompilyatsiyalovchi translyator – dasturlar qo'llaniladi. Shaxsiy

kompyuterlar muloqot tartibida ishlashga mo'ljallangan bo'lganligi uchun ularda asosan interpretatsiyalanuvchi tillardan foydalaniladi.

**Aloqa muharrirlari** tizimni qayta ishlovchi dastur bo'lib, dasturlar moduli bajarilishiga tayyor, yagona yuklovchi, translyator ishlarining olingan natijalari asosida ob'ektlar modulini bog'laydi va tahrirlaydi. Yuklovchi modul operatsion tizim asosiy xotirasida joylashadi va bajariladi. Yuklovchi modul bitta yoki bir necha dasturiy seksiyalarda birlashadi – dasturlarning qismlarini boshqa joyga o'zgartiradi. Muharrir aloqalari oqimiga kiruvchi har-bir ob'ektlar moduli, boshqa modullarda dasturlar seksiyalarida ko'rsatkichlarga ega bo'ishlari mumkin. Bunday ko'rsatkichlar tashqi deb nomlanadi. Tashqi ko'rsatkichlarga ega ko'rsatkich belgilari tashqi nomli deb ataladi. Muharrirga o'rnatilgan mos keluvchi aloqalar tashqi aloqalar va tashqi nomlar, ruxsat etuvchi ko'rsatkichlar deb nomlanadi.

**Kompilyator** – inglizcha so'z bo'lib, (komponovshik, sostavitel) so'zidan olingan bo'lib, boshlang'ich dasturlar asosida ob'yektning dasturlarini tashkil qiladi, ya'ni boshlang'ich dasturni unga ekvivalent bo'lgan ob'yekt dasturini mashina tiliga tarjima qiladi. Kompilyatorning translyatoridan farqi shundaki, kompilyatoridagi dasturning natijasi doimo mashina kodida bo'lishi kerak. Translyatorida esa dasturning natijasi umumiy hollarda turli tillarda yozilgan bo'lishi kerak. Masalan, Paskal tilidagi translyator dasturi Si tilida. Demak, har qanday kompilyator translyator bo'lishi mumkin, lekin har qanday translyator kompilyator bo'la olmaydi. Kompilyator – boshlang'ich dasturlar asosida dastur ob'yektlaridan iborat bo'lishi mumkin. Kompilyator dasturining natijasi "dasturiy ob'yekt" yoki "ob'yekt kodi" deyiladi. Natijaviy dastur yozilgan fayl "ob'yekt faylidir." Dasturning natijasi, mashina buyruqlari tilida yozilgan bo'lishiga qaramay ob'yekt fayli va bajariluvchi (.exe), (.com) fayl o'rtasida ma'lum farq bor. Kompilyator tuzgan ob'yekt fayli (dasturi) o'z-o'zidan bajarilmaydi, chunki bu dasturning kodi va ma'lumotlari xotiraning aniq bir sohasiga bog'lanmagan bo'ladi. Demak, kompilyatorlar kirishida yuqori daraja tilida yozilgan dastur matni, chiqishida mashina kodlaridagi aloqa muharririga yoki yuklovchiga uzatiladigan dastur hisoblanar ekan.

**Yuklovchi** – tizimni qayta ishlovchi dastur bo'lib, aloqali muharrir funksiyalari asoslarini bog'laydi va dasturlarni yagona topshiriq punktiga joylaydi.

**Otladchik** dasturlar bajarilishi jarayonini boshqaradi. Dasturlardagi xatolarni qidiradi va bartaraf etish ishlarini bajaradi. Otladchiklarning umumiy funksiyasiga: dasturning qadamba-qadam bajarilishi, aniqlangan nuqtada tasodifiy to'xtashi, ba'zi shartlar bajarilishida dasturlarning turli

joylarida to'xtab qolishi, tasvir va o'zgarishlar birligining o'zgaruvchiligi kiradi.

**Assembler tili** – mashinaga mo'ljallangan tillar sinfiga mansub. Dasturlash tillarining mashinaga mo'ljallangan tillar – kompyuter arxitekturalarining tuzilishini nomoyon etuvchi va kompyuter arxitekturasiga mos keluvchi assembler dasturlar abstraksiyasi darajasiga xos bo'lgan til hisoblanadi. Har bir buyruq kompyuterning mashinaga mo'ljallangan tillar buyruqlariga mos tushadi, yani:


- ma'lumotlar tiplari;
- dasturlardagi ma'lumotlarining manzillash yo'llari;
- kompyuter bajarayotgan operatsiyalar ko'pligi;
- kompyuter ishida boshqarish yo'llari.

**Dasturlash tizimi** – bu tizim aniq dasturlash tillaridagi yangi dasturlar uchun ishlab chiqilgan.


Zamonaviy dasturlash tizimlari foydalanuvchi uchun aniq va qulay dasturlash muhitini ishlab chiqadi. Ularga:

- kompilyator yoki interpretatorlar;
- integratsiyalashtirilgan ishlab chiqarish muhiti;
- dastur matnlarini muharrirlash va muhitni yaratish;
- standart dasturlarning keng ko'lamli kutubhonasi va funksiyalari;
- otladkali dasturlar va h.k., dasturlar, yordamchilarni topish va dasturdagi hatolarni bartaraf etish;
- dialog muhitida foydalanuvchi bilan “do'stlashish”;
- ko'p oynali ishlash tizimi;
- kuchli grafik kutubhona;
- kutubhona bilan ishlash uchun utilitalar;
- o'zgarmas assembler;
- o'zgarmas ma'lumot birlashmasi;


Asosiy dasturlash tizimlariga - *Turbo Basic, Quick Basic, Turbo Pascal, Turbo C* tillarini kiritish mumkin.



3a-rasm. Ma'lumotlar bazasini boshqarish arxitekturasi



3b-rasm. Ma'lumotlar bazasini dasturlash tizimiga bog'liqligi.



3c-rasm. Vizual komponentlar kutubhonasi.

### 1.3. Amaliy dasturiy ta'minot

Inson kompyuterning barcha sohalaridan foydalanishda, keng ko'lamda dasturiy ta'minotdan va undagi dasturiy ta'minotlarning mahsus sinflarini ishlatadi.

- jarayonni boshqarish va avtomatizatsiyalash;
- eksperimental ma'lumotlarni analiz qilish;
- matematik hisoblar;
- mashinaviy grafika;
- avtomatlashtirilgan tizimlarni loyihalsh;
- jarayonlarni modellashtirish;
- ekspert tizimlari;

## 2. Fayl tizimlari

Operatsion tizimlarning muhim funksiyalaridan biri – fayl tizimlarini tashkillashtirishdir. Fayl (ang. File-papka) – bu biror nomga ega bo'lgan, qayta ishlanuvchi, ma'lum hajmda diskni band etish tushuniladi. Fayl o'zida dasturlarni, raqamli ma'lumotlarni, matnni, kodlangan tasvirlarni va h.k.larni mujassam etgan bo'lishi mumkin.

Fayl tizimi – bu biror tashuvchida fayllarni saqlashni tashkillashtirish uchun muhit yaratuvchi hisoblanadi.

Fayl – bir xil tuzilishga ega bo'lgan ko'rinishdagi virtual ma'lumotlar

yig'indisidir. Tizimli fayllar maxsus yig'ilgan mos dasturiy ta'minotdir. Ular faylli ma'lumotlarning yaratilishi, yo'qotilishi, tashkil qilinishi, o'qilishi, yozilishiga javob beradi. Shuningdek fayllarni ishlatishda mana shu fayllarni boshqarishga ham javob beradi. Fayllar tizimi diskda berilganlarni tashkil qilish usulini yoki boshqa berilganlar tashuvchilari tashkillashtirishini aniqlaydi. FAT fayl tizimida, operatsion tizimlarning aksariyat ko'pchiligida, ya'ni MS DOS, OS2, Windows, Windows NT, Linuxda FAT prinsiplari asosida tashkil qilingan fayllar bilan quvvatlangan. Lekin hamma fayl tizimlari o'zining individual xususiyatlari va cheklashlariga ega. Zamonaviy operatsion tizimlar mos fayllarni boshqarish fayllariga ega. Fayllarni boshqarish tizimi operatsion tizimlarning ko'pchiligida asosiy quyi tizim hisoblanadi. Birinchidan, fayllarni boshqarish tizimi orqali dasturlarni qayta ishlovchi tizimlar bilan bog'laydi. Ikkinchidan, bu tizimlar yordamida berilganlarni boshqarish va disklarni markazlashgan tarmoqlashuvi masalalarini yechish mumkin. Uchinchidan, u yoki bu fayllarni boshqarish tizimlaridan foydalanish natijasida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- o'z dasturidan nom berilgan fayllarni yaratish, olib tashlash, nomini o'zgartirish;
- fayllar o'rtasidagi ma'lumotlarni almashish;
- fayllarni boshqarish tizimi dastur modullariga murojaat qilib fayllar bilan ishlash.

Operatsion tizimlarda bir nechta fayllarni boshqarish tizimlari mavjud bo'lishi mumkin. Ular esa bir nechta tizimli fayllar bilan ishlash imkoniyatini ta'minlaydi.


Tizimli fayl fayllarni tashkil qiluvchi berilganlarni aniqlaydi. Fayllarni boshqarish tizimi – aniq amalga oshiruvchi fayl tizimi, ya'ni dasturiy modul majmuasi bo'lib, u aniq operatsion tizimdagi fayllar ishini ta'minlaydi. Shuni aytish kerakki, har qanday fayllarni boshqarish tizimi o'zicha bo'lmaydi va u aniq operatsion tizimida ishlash uchun yaratilgan. Masalan, FAT (file allocation table) – uni fayllarni boshqarish tizimi sifatida ko'rish mumkin. Birinchidan FAT-12 disketalar bilan ishlash uchun ishlab chiqilgan edi, keyinchalik qattiq disklar bilan ishlashda foydalanilgan. FAT-16 katta hajmda xotiraga ega bo'lgan qattiq disklarda ishlatiladi. OS2 uchun fayllarni boshqarish tizimlarida FAT tizimining asosiy usullari ishlatiladi, u Super-FAT deb nomlanadi. Shuningdek, FAT tamoyillari fayllarni boshqarish tizimlari rusumlari Windows 95, 98, Windows NT uchun mavjud. Boshqacha qilib aytganda, fayllar bilan ishlash uchun har bir operatsion tizim uchun mos fayllarni boshqarish tizimlari ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Bu fayllarni boshqarish tizimlari



qaysi operatsion tizim uchun yaratilgan bo'lsa, o'sha operatsion tizimda ishlaydi. Shu bilan birga fayl tizimlarining asosiy tamoyillari bilan ishlovchi boshqa operatsion tizimlar fayllarini boshqarish tizimlari yordamida ishlashga imkon beradi.

## 2.1. NTFS fayl tizimi

NTFS (New Technology File System) so'zlaridan olingan. Bu tizim bundan oldingilariga nisbatan bir-oz qayta ishlangan va o'zgartirilgan. Unda fayllar oldingidek kataloglarda saqlanadi, lekin FATga nisbatan katta hajmdagi disklarda ish ancha samarali olib boriladi. Fayl va kataloglarga bo'lgan murojaatga cheklashlar mavjud. Fayl tizimining himoyasini oshiruvchi mexanizmlar ishlab chiqilgan. NTFS katta hajmli axborot massivlari bilan bimalol ishlay oladi va 300 : 400 MB va undan kattaroq hajmdagi tommlar bilan yaxshi ishlaydi. Tomning va faylning maksimal mumkin bo'lgan o'lchami 16 Eбайt, bu yerda ekzabayt – bu 1 ekzabayt 260 yoki (1 000 000 000 000 000 000 – bayt) GB. Ildiz va boshqa kataloglarda fayllarning soni chegaralanmagan.



4-rasm. NTFS fayl tizimining oddiy (chapda) va ajratilgan (o'ngda) qismlari

NTFSda fayllarni qidirish vaqti ularning soniga to'g'ri yoki taqriban

proporsional. U binar daraxt shaklida bo'lgani uchun NTFS o'z-o'zini tiklash vositalariga ega. U tom, katalog va fayllarga alohida ob'jekt sifatida qaraydi. NTFS fayllar darajasida himoyani ta'minlaydi, ya'ni tom, katalog va fayllar foydalanuvchilarning qayd qilish yozuviga bog'liq. Agar foydalanuvchida yuqori darajadagi huquqi bo'lsa, uning so'rovi qoniqtiriladi. Bu himoya modeli lokal foydalanuvchilar ro'yxatga olinishida, masofali tarmoqli so'rovlarda ham qo'llaniladi. NTFSda alohida fayl, katalog hatto tomlarni zichlashtirish usullari bor. Boshqa tizimlarga o'xshash NTFS ham tomning disk sohasini klasterlarga bo'ladi. NTFSda klasterlar 512 baytdan 64 kB.gacha hajmda bo'lishi mumkin. Standart sifatida 2 yoki 4 kb.li klasterlar ishlatiladi. NTFSda butun disk sohasi 2 ta teng bo'lmagan qismga ajratiladi (12% va 88%). Diskning birinchi 12%i MFT – zona deb ataluvchi (Master File Table) sohaga ajratiladi. MFT- bu asosiy xizmatchi meta-fayl, unda axborotning asosiy tizimli strukturasi joylashgan bo'lib, u bosh-qa fayllarning joylashishini aniqlaydi. Bu maydonga hech qanday ma'lu-mot yozib bo'lmaydi. MFTzonaning bo'sh qismi bo'shligicha turadi, chunki MFT1 ga axborotlar kamayganda shu bo'sh joyga yozadi. Tomning qolgan 88%i boshqa fayl va kataloglarni saqlovchi oddiy soha sifatida ajratiladi.

Yuklovchi sektor
1-tiziml fayli
2- tizim fayli
n- tizim fayli
MFT nusxasi (dastlabki 3 yozuv)
N-1 fayl
Yuklovchi blok nusxasi
M fayl

1- bo'lak

3- bo'lak 2- bo'lak

MFT disk barcha fayllarning va o'zining markazlashgan katalogidan tashkil topgan. MFT 1 kB (bu son 4 kB gacha) uzunlikdagi fiksirlangan yozuvlarga bo'lingan va har-bir yozuv ma'lum faylga taalluqli. Birinchi 16 ta fayl xizmatchi bo'lib, ularga operatsion tizim murojaat qila olmaydi, chunki ular operatsion tizim uchun tushunarli emas. Ular "metafayl"lar deb nomlanadi. Ularning birinchisi MFT faylning boshqa qismlari, boshqa fayllar singari diskning ixtiyoriy sohasida joylashishi mumkin. Ularni tiklash uchun

5-rasm. FAT fayl tizimi

MFT ning birinchi elementi bilan bog'liq bo'ladi. Bu aytilgan 1-16 ta fayllar xizmatchi xarakterga ega. Ularning har biri tizim ishining qaysidir aspekti uchun xizmat qiladi. Metafayllar NTFS tomining ildiz katalogida joylashadi. Ularning hammasi o'z belgisi bilan boshlanadi, lekin standart vositalar bilan boshlanadi, standart vositalar bilan esa ular haqida axborot olib bo'lmaydi.

## **2.2. FAT fayl tizimi**


Ma'lumki, FAT (file allocation table) "fayllar joylashish jadvali". Bu termin fayllar haqidagi ma'lumotlar tuzilishining chiziqli jadvaliga mansubdir. Ya'ni unda fayllar nomi, ularning atributlari va boshqa ma'lumotlarning (file allocation table) FAT muhitida fayllarning joylashishini aniqlaydi. FAT elementi boshlang'ich fizik faylning saqlanayotgan disk sohasini aniqlaydi. FAT fayl tizimida mantiqiy disk ikki sohaga bo'linadi: tizimli soha (oblast) va berilganlar sohasi. Mantiqiy diskning sistemali sohasi formatlashtirish jarayonida ishga tushiriladi va yaratiladi. Mantiqiy diskning berilganlar sohasi fayl va kataloglardan iborat.

Tizimli soha (oblast) mantiqiy manzilli sohada joylashgan quyidagi komponentlardan tashkil topgan;

- 1) yuklash yozuvi (boot record, BR);
- 2) zahiralangan sektorlar (reserved sector, Res Secs);
- 3) fayllarning joylashish jadvali (file allocation table, FAT);
- 4) ildiz katalog (root directori, RDir).

Fayllarni joylashtirish jadvali muhim axborot tuzilma hisoblanadi. Berilganlar sohasining xaritasini tashkil etadi. Unda berilganlar sohasining har bir qismi holati yoziladi. Berilganlar sohasi klasterlarga ajratiladi. Klaster – berilganlar sohasidagi bir yoki bir necha oraliq sektordir. FAT jadvalida bitta faylga tegishli klasterlar zanjiriga bog'lanadi. FAT16 – fayllarni boshqarish tizimida klaster raqamini ko'rsatish uchun 16 bitli so'zdan foydalaniladi, ya'ni 2<sup>16</sup> - 65535 klaster (o dan 65535 raqamgacha).

Klaster – bu disk xotirasida faylga ajratiluvchi minimal adreslash birligidir. Fayl yoki katalog butun sonlar klasterini egallaydi. 2 Gbayt o'lchamli qattiq disk uchun klaster 32 Kbaytga teng. Agar disk kichikroq bo'lsa, klaster ham mos ravishda kichik bo'ladi. 1 Gbayt disk uchun klaster 16 Kbaytga teng. Disketalarda klaster 1 yoki 2 ta sektorni egallaydi, qattiq disklarda esa bo'linmaning xajmiga bog'liq bo'ladi. Klaster raqami har doim diskning berilganlar sohasiga tegishli. Birinchi klaster har doim ikkinchidan boshlanadi. Klasterlar raqami fayllarning joylashish jadvali elementlariga mos keladi.



6-rasm. FAT fayl tizimlari

Zamonaviy disklarda klaster, sektorga nisbatan ancha katta. Bitta klasterda o'nlab sektorlar joylashishi mumkin. Lekin fayl katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar u butun klasterni egallaydi va foydalanilmagan sektorlar u yerda yo'qolib ketadi.

Magnit diskdagi birinchi yo'lakcha (nolinchi) xizmatchi ma'lumotlar saqlanuvchi xizmatchi yo'lakcha hisoblanadi. Masalan, bu yo'lakda fayllarning joylashish jadvali (FAT-jadval) saqlanadi. Bu jadvalda kompyuter yozilgan fayllarning manzillarini saqlaydi. Qaysi fayl kerak bo'lsa, kompyuter uning nomi bilan jadvalda yo'lakcha raqami va sektor raqamini topadi, so'ngra magnit boshchasi kerakli holatga keltirilib, faylni o'qiy boshlaydi va operativ xotiraga qayta ishlash uchun yuboriladi.

### 2.3. FAT va NTFS ning asosiy farqlari

FAT fayl tizimi NTFS dan soddaligi va ixchamligi bilan farq qiladi. NTFS da berilganlar FAT ga nisbatan ko'p joy egallaydi. Har bir katalog elementi 2 Kbayt joyni egallashi mumkin.

NTFS tizimi floppi-disklaridan formatlashtirishda foydalanib bo'lmaydi. 50-100 Mbayt hajmdagi bo'limlarni formatlashtirishda undan foydala-

nish mumkin emas. Keyingi taqqoslash kriteriysi – fayllarning o'lchamiga bog'liqligidadir. FAT bo'limlari 2 Gbaytgacha hajmda, VFAT – 4 Gbayt, FAT32 – 4 Tbayt joyni egallaydi. NTFS bo'limlari esa 16 Ebayt (Eksabayt), hajmgacha yotadi.

FAT bo'limlari hamma operatsion tizimlarda ishlashi mumkin. NTFS bo'limlari faqat Windows NT va keyingi OTlar bilan ishlashi mumkin, lekin bir qator operatsion tizimlar uchun NTFS tomalaridan fayllarni o'qish mumkin. Masalan, MS DOS yuklanish rejimida NTFS DOS utilitlari kompyuterdagi NTFSning berilganlarini o'qishi mumkin.

FAT bo'limlari lokal xavfsizlikni ta'minlamaydi. NTFS bo'limlari fayl va kataloglarning lokal xavfsizligini ta'minlaydi. FAT bo'limlarida tarmoq kataloglariga umumiy foydalanishga huquqlar o'rnatiladi. Shuni eslatib o'tish joizki, Windows NT da convert.exe, nomli maxsus utilitga egadir. Bu utilit FAT tomalarini unga ekvivalent NTFS tomalariga aylantiradi, ammo NTFSdan FATga aylantiruvchi utilit mavjud emas. Shunday NTFSdan FAT ga o'girish uchun, avval FAT bo'limini yaratib, unga NTFS bo'limidagi fayllardan nusxa olib, so'ngra originalini o'chirib tashlash kerak. Lekin bunda NTFSdan FATga fayllarni nusxa olishda NTFSning xavfsizlik atributlari yo'qoladi. Keyingi paytlarda disk mexanizmlari hajmi bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim sharoit tug'ildi, ya'ni FATning mumkin bo'lgan maksimal o'lchami – 8,4 Gbayt sektor adresidagi maksimal qiymati uchun 3 bayt joy ajratilgan. Shuning uchun ko'pincha Windows tizimi muhitida FAT32 yoki NTFS ishlatiladi.

### **3. Operatsion tizimlar**

Operatsion tizim (OT) – TDT ning har doimgi, doimiy qismi bo'lib, u ShKning (Shaxsiy kompyuter) turli rejimlarida samarali ishlashini ta'minlaydi, dasturning bajarilishini va foydalanuvchi va EHM tashqi qurollarining o'zaro ishini tashkil etadi.

Operatsion tizim vazifalarni, funksiyalarni va hisoblash tizimining zaxiralarini taqsimlash va ishlatilishini nazorat etishdan iborat bo'lgan dasturlar majmuasiga kiritish mumkin. Hisoblash tizimida fizik zaxiralar, ya'ni aniq qurilma (magnit diskleri, operativ xotira, protsessorning ishlash vaqti) bilan bog'liq zaxiralar mavjud. Tizimda tizimning yaxshi ishlashini ta'minlovchi mantiqiy zaxiralar, ya'ni aniq qurilma ko'rinishida mavjud bo'lmagan, lekin foydalanuvchiga ba'zi bir manba sifatida taqdim etiladigan zaxiralar mavjud. Fizik va mantiqiy zaxiralar birgalikda hisoblash tizimining zaxiralari deb ataladi.

Ixtiyoriy operatsion tizim, ularni boshqarish hisobiga, ularning hususiyatlarini baholaydi. Bunday tushunchalarga fayl, jarayon, ob'ekt va h.k. kiradi. Har bir OT o'zining tushunchalar to'plamiga ega. Windows NT OTda bunday tushunchalarga ob'ekt tushunchasi kiradi va shu tushunchani boshqarish bilan barcha mumkin bo'lgan funksiyalar ko'rsatiladi. UNIX OT da bunday tushuncha bo'lib, birinchi navbatda bu fayl tushunchasi, ikkinchi navbatda esa jarayon tushunchasi hisoblanadi.

### **Operatsion tizimlar yadrolari:**

